

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA
№ WU5163215680**

1. Loyihaning turi

SHARTNOMA

2. Loyihaning nomi

Xizmat ko‘rsatish shartnomasi to‘g‘risida

“Iste‘molchi” deb yuritiluvchi o‘z Nizomiga asosan faoliyat olib borayotgan Buloqboshi tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik jamoat salomatsizligi xizmati bo‘limi nomidan harakatdagi Nizomi asosida ish yurituvchi boshliq T.Ko‘kiyev, bir tomondan va ikkinchi tomondan “Ta‘minotchi” deb yuritiluvchi “Andijon suv ta‘minoti” MCHJ Buloqboshi tuman filiali rahbari X.Karimova.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot

Buloqboshi tuman SEO JSX bo‘limi 21.01.2022y.

Loyiha: O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni imzolash mumkin.

2022-yil “24” yanvar

**Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi
bosh yuriskonsulti**



F.R.Madaminov

Yuridik shaxslar uchun suv ta'minoti
shartnomasiga 2-ILOVA

2 - ilova
Tarif (QQS va Maxsus ustama
haq bilan)
Suv 1 m³ 1430 so'm,
Oqova 1 m³ _____ so'm

Suv hisoblagichlar o'rnatilgan joylari va tavsiflari

Iste'molchining (subiste'molchining) hisoblagichlari o'rnatilgan joylar, turi va bosim sinfi (m) ko'rsatilgan holda	Hisoblagich turi	Hisoblagich raqami (zavod №)	Hisoblagich tarmoq muxri nomeri	Quvur xajmi	SHartnoma tuzish sanasiga hisoblagich ko'rsatkichi

«Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun
116 -sonli shartnoma
«24» 01 20 22 y.

Ushbu shartnoma «Andijon suv ta'minoti» MCHJ, keyingi o'rinlarda «Ta'minotchi»
deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat
yurituvchi Diyor Saev K. kopylov

tomondan va keyingi o'rinlarda «Iste'molchi» deb yuritiluvchi
Diyor Saev E.T.O. B. M.CX shaxsida, bir
Megon T. uykuob asosida ish olib boruvchi direktor
(F.I.O.)

ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

I. SHartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik
tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh «Iste'molchi» lari deb yuritiladi) uchun
suv yetkazish 1430 narx bo'yicha 10488 m³ ni:
1 m³ ichimlik suv uchun 1380 so'm (+QQS 15%), + 50 so'm (maxsus ustama
xaq) ni;

1 m³ oqova suv uchun _____ so'm (+QQS 15%), + _____ so'm (maxsus ustama
xaq) ni tashkil qilmoqda.

SHu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 1499784 1499784 1499784
1499784 so'mni tashkil qildi. (summa yozuv bilan)
SHu jumladan, byudjet mablag'laridan 1499784 so'm, byudjetdan tashqari
mablag'laridan _____ so'm byudjetdan tashqari mablag'lardan to'lanishi ko'zda
tutilgan.

II guruh Iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda «Ta'minotchi» tomonidan
taqdim qilingan hisobvoraq-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachilligi orqali suv
ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga
oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni sifati ichimlik suv bilan ta'minlash va
«Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni
xar oynining 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish
majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IMZOLAR:



Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. SHartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma uch nusxada tuzilgan bo'lib, ikki nusxasi Ta'minotchida bir nusxa Iste'molchida saqlanadi.

9.2 SHartnoma g'aznachilik bo'limalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2021 yilning 31 dekabrighacha amal qiladi.

X. Taraflarning yuridik manzili:

«TA`MINOTCHI»

«ISTE`MOLCHI»

Byuk Sovu 020 ba MCFE

Manzil Kary 149 u q u

Tel: faks

g'az/h-1000228600321070741100

Bank 54001

Bank kodi 00014 STIR 200286709

XHTUT Map Karuvi bank

SHaxsiy raqam Moly m. 5.5

SHaxsiy h-r

Bank

Bank kodi STIR



Bank kodi STIR



2022 y.

Yuridik xufosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fiqarorlik kodeksi va "Xo'jalik yurituvi" sub-ektlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'g'risida'gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan

Yuriskonsul't: « » 20 y.

«Ta'minotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldagi mehyor, qoidalar va boshqa mehyor hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi «Ta'minotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgarigan sanasidan qathi nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan ehtiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar «Ta'minotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xamda qurilmalariga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) ichimlik suv istehmoli uchun — tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, «Iste'molchi»ning ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova xizmati uchun — «Iste'molchi» oqova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral oqova tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi oqova qudug'i (kamerasi) magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu qudug' «Ta'minotchi» tashkiloti oqova tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa «Iste'molchi»ning mablag'ilari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

3.1.1. Tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «Ta'minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

3.1.2. «Ta'minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishida kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilishi;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «Ta'minotchi» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlari:

3.2.1. Oqova tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarni suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi-qurilmalarning but-saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatda bo'lishini ta'minlash;

6.2.1. «Iste`molchi»da suv o`lchash pribori va moslamalari yo`q bo`lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.2.2. Suv o`lchash pribori yoki moslamasi «Ta`minotchi»da ro`yxatdan o`tmagan taqdirda;

6.2.3. Ichimlik suvi bilan o`zboshimchalik bilan foydalanilganda;

6.2.4. Suv o`lchash pribori, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi so`nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o`lchash pribori o`rnatilgan (ro`yhatdan o`tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.2.5. «Ta`minotchi»ning suv o`lchash bo`g`ini diametiri kichikroq bo`lgan moslamaga almashtirish to`g`risidagi talabnomasi qondirilmagan va bajarilmagan holatlarda;

6.2.6. Suv o`lchash priborining hisob-kitobini olib borish bo`g`inidagi qo`yilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.3. Ichimlik va oqova suv tizimlariga (jumladan yong`indan saqlanish gidrant va quvurlariga) o`zboshimchalik bilan ulanib olingan va foydalanilgan holatlar aniqlanganda «Ta`minotchi» tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o`zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va «Ta`minotchi»ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Bunda:

- to`lov muddati, eng so`nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o`zboshimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki yangi suv o`lchash pribori o`rnatilib, ro`yhatdan o`tkazilgan kungacha yoki o`zboshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

- o`zboshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo`lgan sanagacha, agar «Ta`minotchi» balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo`lsa, bu muddat da`vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o`zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo`lmasa, bu muddat da`vo muddatiga teng deb olinadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obg`ektni loyxlashirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho`zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo`lmagan holda yoki muddati o`lgan holda, «Ta`minotchi» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo`ladi.

6.5. «Iste`molchi» ichimlik va oqova suvni tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarini taqdim etmagan holatlarda «Ta`minotchi» tomonidan xokim qarori va kadastr hujjatlari hamda shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo`yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to`lovlar «Ta`minotchi» tomonidan taqdim etiladigan to`lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to`lovlar «Iste`molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To`lovlar o`z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Ta`minotchi» kechiktirilgan to`lovning har bir kuni uchun 0,4 foiz penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to`lovning 50%dan oshmasligi lozim.

g) «Iste`molchi» tasarrufida bo`lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonتلarning o`zboshimchalik bilan ulanganini aniqlanganda;

d) «Iste`molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to`lanmaganda;

e) «Iste`molchi»ning tasarrufida bo`lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «Ta`minotchi» tashkilotidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonتلarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

yo) «Iste`molchi» tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo`yicha shartlarga rioya qilmaganda.

3.3.9. «Ta`minotchi» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to`liq yoki qisman to`xtatishga haqli:

a) «Ta`minotchi» tashkilotining elektr ta`minoti to`xtatilganda;

b) Tabiiy ofatlar ro`y berganda;

v) Avariya holatlarida;

g) Yong`in chiqqan joylarga suv uzatishni ko`paytirishga zarurat tug`ilganda.

3.4. «Ta`minotchi»ning majburiyatlari:

3.4.1. Suv ta`minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Tarmoqdagi ichimlik suv sifatini monitoringini olib borish;

3.4.4. Iste`molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqova tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda Iste`molchilarga amaliy yordam ko`rsatish;

3.4.5. Iste`molchilar tomonidan suvni behuda sarfining olidini olish, sanoat korxonalari va ularga tenglashtirilgan korxonalarda suv berish bo`yicha belgilangan limitlarga rioya qilinayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;

3.4.6. Suv iste`moli belgilangan me`yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Ta`minotchi» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi 10,0 koeffitsientni qo`llash;

3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta`minlash;

3.4.8. SHartnoma shartlariga muvofiq o`z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda Iste`molchiga penya hisoblash;

3.4.9. Iste`molchilarning shartnoma shartlariga rioya etishmagani masalasi bo`yicha sud organlariga murojaat qilish;

3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to`lovlarning holati, qarzlarning yo`qligi haqidagi ma'lumotlarni Iste`molchilarga bepul taqdim etish;

3.4.11. Ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflaridagi o`zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yordamida Iste`molchilarni xabardor qilish;

3.4.12. Ichimlik va oqova suv xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida Iste'molchilar uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish.

IV. Tarafdarning javobgarligi

4.1. «Ta'minotchi» ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarimaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, «Iste'molchi» esa yetkazilgan haqiqiy zarar o'rnini qoplashi shart.

4.2. «Iste'molchi» quyidagilar uchun javobgardir:

a) Ichimlik suvni hisobga olish pribori plombalari butligi, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrant va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarining hududidi va tasarrufida bo'lgan plombalangan hisoblash qurilmalarining butun saqlanishi uchun;

b) Suv tarmoqlariga o'z boshimcha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash priborlaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holatlari uchun;

v) O'z boshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariyaalar bo'lgan holatlarda;

g) Drenaj tizimi mavjud bo'lsa «Iste'molchi» hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarining tushishiga yo'l qo'yimaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «Ta'minotchi» o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma «Iste'molchi»ning mashhuliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

d) Qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

4.3. «Ta'minotchi» quyidagi hollarda javobgardir:

a) Amidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda;

b) «Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarni o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

v) «Iste'molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, mahnaviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda qoplash;

g) SHartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarimaslik.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Ichimlik va oqova suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mavjud bo'lganda, hisobga olish priborining ko'rsatkichlariga muvofiq amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo'lganda oxirgi uch oynning o'rtacha sarfi bo'yicha keyingi oy uchun har oynning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3. To'lovning shartnomada belgilangandan kechiktirilgan har bir kuni uchun Iste'molchi 0,4 foiz penya to'laydi. Ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4. «Iste'molchi» keyingi oy uchun har oynning 10-sanasiga qadar 100-foiz oldindan haq to'lovlarini amalga oshirmasalar, Iste'molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iste'molchilarni ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq «Iste'molchi» zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ulashda «Iste'molchi»dan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, istehmol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari hisobi uchun 2,0 koeffitsienti qo'llaniladi.

«Iste'molchi»ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, oqova suvlarining miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsuldorligiga (o'rnatilgan va to'yxatga olingan hisoblash priborlarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «Iste'molchi»ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'lmaydigan lozim.

5.6. Obhekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obhektlaridan maxsus suv olish yoki istehmol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (artezian skvajinasi, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mavjud bo'lganda oqova tizimiga oqova suvlarini oqizish uchun to'lovlar o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash priborining ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. «Iste'molchi»ga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

VI. Alohida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'z g'arganda Iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni to'lab, bu haqda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. «Iste'molchi» chiqib ketgach suvni hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oynning kalendard kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times t$$

bunda: M – 0.60ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koeffitsienti;

F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha) m²;

g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;

N – suvning metrlardagi bosimi;

t – vaqt- 24 soat, sekunlarda.

Quyidagi holatlarda yuqoridagi formula asosida hisoblanadi:

3.2.2. Iste molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqova tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaning yo`qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli Iste molchining oqova tarmoqlarida yoki « Ta`minotchi » tashkilotida, ichimlik suv va oqovanning tashqi tarmoqlarida avariya (tqilib qolish, suv bosish) sodir bo`lishi sababli yerto`la xonalarni suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. « Ta`minotchi » tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong`in zulfnlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo`lgan hamda « Ta`minotchi » tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlashi;

3.2.4. « Ta`minotchi » tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik;

3.2.5. Ichimlik suvi ta`minotining yong`inga qarshi tizimidan foydalanish to`xtatilganda «Iste molchi» 24 soat mobaynida «Ta`minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to`g`risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfnlarni plombalash uchun «Ta`minotchi» tashkiloti vakilini chaqirish;

3.2.6. "Ta`minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyingning 23 dan 25 gacha sanasida ko`rsatkichlarni o`z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko`rsatkichlarni "Ta`minotchi"ga kechikmagan holda taqdim qilish va to`lovni amalga oshirish.

3.3. «Ta`minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. « Ta`minotchi » tashkiloti, Iste molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to`liq va qisman to`xtatishi mumkin:

a) «Iste molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo`lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsiz bo`lganda va «Ta`minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo`yicha «Ta`minotchi» tashkiloti talablari Iste molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta`minotchi» tashkilot mansabdor shaxsi Iste molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko`rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o`rnatish maqsadida ko`zdan kechirish, belgilangan limitdan ko`p sarf qilganda suv berishni muvofiqlashtirish va «Ta`minotchi» tashkiloti naryadlari bo`yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda Iste molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;

v) «Ta`minotchi» tashkiloti tomonidan Iste molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida tahmirlash hamda xizmat ko`rsatish ishlari o`tkazilganda, shuningdek, yangi Iste molchilarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yong`ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini «Iste molchi»lar tomonidan tashlash tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevralg` kuni qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O`zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «Iste molchi»larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo`yicha me`yorlar bilan belgilangan oqizishning yo`l qo`yladigan cheklangan miqdoridan ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to`lovlarni hisoblab yozish tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktyabrda "Tabiatni muhofaza qilishni ta`himlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi 820-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O`zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to`lovlarni hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarzdorlik to`lamagan taqdirda «Iste molchi» oqova tarmoqlaridan uzib qo`yladi.

6.11. Hisob-kitobning noto`g`ri qilinganligi (tariflarning noto`g`ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to`g`risida «Iste molchi» yoziladigan ehtiroznoma to`lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Ta`minotchi»ga taqdim etilishi kerak. E`tiroznoma «Iste molchi»ni to`lov talabnomasi va xujjatida ko`rsatilgan summani to`liq va belgilangan muddatda to`lashdan ozod qilmaydi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Tarafdar o`rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo`li bilan hal qilinadi.

Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik «Iste molchi» davlat ro`yxatidan o`tgan sud organlarida ko`rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo`yicha majburiyatlar qisman yoki to`liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo`lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong`in, sel, do`l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta`sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari"ga (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1m³ ichimlik suv uchun 50 so'm, 1m³ oqova suv xizmati uchun 50 so'm bilan birga «Ta'minotchi» tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» «Ta'minotchi» tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali Iste'molchilariga mansub bo'lsa, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish priborini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmaganda, Ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan Iste'molchi xo'jalik-istehmol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalaniladi.

2.6. Suvni hisobga olish priborlari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilib plombalanadi, hamda «Ta'minotchi» tomonidan plombalanishi lozim. SHuningdek, ichimlik suvini xisobga olish priborini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. «Iste'molchi»ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash priborining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv istehmoli va minimal suv istehmoliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun o'rnatilgan minimal istehmol miqdoridan kam miqdorda suv istehmol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashtirish, yangi subiste'molchilarning ulanishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Ta'minotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchi»ning so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi.

Etkazib beriladigan suv sarfi

Tarif guruhi _____

Faoliyat turi Sog'mo'm

	Suv sarfi m ³	Oqova sarfi m ³
Yil, jami	1048,8	
Yanvar	349,6	
Fevral	349,6	
Mart	349,6	
Aprel		
May		
Iyun		
Iyul		
Avgust		
Sentyabr		
Oktyabr		
Noyabr		
Dekabr		



IMZOLAR

«Ta'minotchi»

«Iste'molchi»